

## RAUF PARFI IJODIDA VATAN KONSEPTINING IFODALANISHI

Mahliyo Xolmo‘minova

O‘zMU o‘zbek filologiyasi

I bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** O‘zbek tili shu qadar boy va jozibadorki, istalgan ma‘noni istalgan uslubda ko‘rsatish, ma‘lum bir tushunchani turli yo‘llar orqali yetkazib berish, ayni bir gapni bir necha holatda namoyon etish mumkin. Badiiy adabiyot, ayniqsa she‘riyatda bu yaqqol aks etadi. Nazm nasr va dramaturgiyada bo‘lganidan ancha ko‘proq badiiylikka, jozibadorlikka, ko‘chma ma‘noda chiroyli, ta‘sirchan va o‘zgacha ifodalangan misralarga boy. Ayniqsa, so‘z konsepti borasida bo‘lsa, uning milliy-madaniy xususiyatlari ta‘sirida yanada go‘zal obrazlar namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada ham, Rauf Parfi ijodidagi vatan tushunchasiga konsepti nuqta‘i nazarida yondashilgan bo‘lib, tushunchaning turli lingvistik birliklar orqali ifodalanishi to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** konsepti, vatan konsepti, ramz, metafora, lingvistik birliklar.

**Abstract.** The Uzbek language is so rich and attractive that it is possible to express any meaning in any way, convey a certain concept in different ways, and express the same sentence in several cases. This is clearly reflected in fiction, especially poetry. Poetry is much more artistic, attractive, figuratively beautiful, impressive and uniquely expressed verses than in prose and drama. Especially when it comes to the word concept, more beautiful images appear under the influence of its national and cultural characteristics. In this article, the concept of homeland in the work of Rauf Parfi is approached from the point of view of the concept, and the expression of the concept through different linguistic units is discussed.

**Key words:** concept, concept of homeland, symbol, metaphor, linguistic units.

**Аннотация.** Узбекский язык настолько богат и привлекателен, что в нем можно любым способом выразить любое значение, по-разному передать определенное понятие, выразить одно и то же предложение в нескольких падежах. Это ярко отражено в художественной литературе, особенно в поэзии. Поэзия гораздо более артистична, привлекательна, образно красива, выразительна и своеобразно выражена, чем стихи, чем проза и драматургия. Особенно когда речь идет о слове концепт, более красивые образы появляются под влиянием его национально-культурных особенностей. В данной статье концепт родины в творчестве Рауфа Парфи рассматривается с точки зрения концепта, а также обсуждается выражение концепта через разные языковые единицы.

**Ключевые слова:** концепт, концепт родина, символ, метафора, языковые единицы.

## **KIRISH**

O‘zbek tilida bugunga qadar yaratilgan she‘r yoki she‘riy asarlarning barchasi yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan ta‘riflarga mos deya olmaymiz, albatta. Lekin xalqimiz har biri o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan shoirlarimizni ularning bir-biriga o‘xshamas ijod namunalari tirik guvohlaridir. Ularning ba‘zilari xalqchil, sodda, tushunish uchun oson bo‘lgan so‘zlardan foydalansa, ba‘zilari ularni bezagan holda, ko‘chma ma’noli so‘zlardan, o‘xshatish va qiyoslashlardan foydalanadi. Yana bir qismi o‘ziga xos ramzlar bilan boyitilgan, kitobxonning ruhiy hamda ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda turlicha tushunilishi mumkin bo‘lgan ijod namunalari bilan tanilgan. Shulardan biri o‘ziga xos ijod bilan barcha kitobxonlar ko‘nglida joy olgan Rauf Parfi O‘zturkdir.

“XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan Rauf Parfi – Sir shoiri unvoni, sohir she’riyat sohibidir” [9,5]. Undagi samimiy va jimjimadorlikdan holi bo‘lgan adabiy yaratishlar hamma vaqtlarda ham o‘z muxlislariga ega bo‘lgan. Ba’zan kishi tafakkuri va aqliy faoliyatini bir oz zo‘riqtirib, ba’zan esa tabiatning jonli tasviri orqali ruhiy olam sokinligini baxshida etgan shoir, sukunatning ajib torlarini ko‘ngilga olib kirgandek bo‘ladi. Jahon adabiyoti durdonalaridan yaxshigina xabardor bo‘lgan Rauf Parfi o‘ziga xos yo‘nalish, badiiy did asosida sharq va g‘arb she’riyatini omixta tarzda keng kitobxon ommasiga taqdim etdi. Aytish mumkinki, Rauf Parfi ijodini jahon adabiyotshunosligi mezonlari nuqtayi nazaridan o‘rganish, baholash, uning badiiy mahoratini aniqlash muhim vazifalardandir.

## **MATERIAL VA METODLAR**

XX asrning 60-yil o‘rtalari, 70-yil boshlari she’riyatga kirib kelgan, yorqin o‘zligini namoyon etgan Rauf Parfi yangi, ohori to‘kilmagan, kutilmagan noan’anaviy majoziy (Qushcha, Chiroq, Daraxt, Nay, Nur) obrazlari bilan adabiy jamoatchilik muhabbatini qozondi; majoziy obrazlilik asosiga qurilgan badiiy tafakkur tabiati bilan el-yurt nazariga tushdi. Rauf Parfi she’rlaridagi insonga mehr-muhabbat harorati, ishonch-e’tibor ruhi, dardchil-ma’yus va mahzun ohang, ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan samimiylik, ko‘zga surtgudek e’zoz-ehtirom topdi. Va yanayam muhimi, shoir asarlarining ijtimoiy-falsafiy mag‘zi she’riyatimizda yangi yo‘nalish edi. Xususan, birinchidan, hayotdan, tiriklikdan maqsad, ruhni kamol topdirishdir. Ikkinchidan, ruhoni erkinliksiz odam o‘zligini namoyon qila bilmaydi; uchinchidan, milliy birliksiz millat, xalq o‘z borlig‘ini saqlab qola olmaydi, degan ustuvor g‘oyalar shoir she’riyatining estetik qimmatini belgilab berdi. “Ayni orzularda, ayni qayg‘ularda, ayni sevinchlarda yashamoq” tiriklikning mohiyatidir, deb biladi u.

R.Parfi estetik qarashlarining ildizlari Sharq va G‘arb badiiyatining mumtoz namunalaridan suv ichadi. Shu boisdan ham, shoirni jahon estetikasidagi timsollar realizmiga, tuyg‘ular realizmiga moyil san‘at korlar ko‘proq qiziqtiradi. Xususan, realizm estetikasiga ko‘ra, shoirni dunyoviy zulm-istibdodga qarshi shaxs erki masalasi, tabiatning to‘rt fasliga monand kechinmalar tug‘yoni, hayoti band etadi. Shu boisdan ham, shoir adabiy asarlarning estetik qimmatini va ahamiyatini belgilashda ularning salohiyatini, badiiyatini bosh mezon, deb biladi. Boshiga qilich kelganda ham faqat rost so‘zlash, Haq va Haqiqatni yoqlash, har qanday yolg‘on, riyo, makr, zulm va xiyonat ko‘rinishlarini inkor etish, ularga qarshi isyon ko‘tarish R.Parfi estetikasining mag‘zini tashkil etadi.

Rauf Parfi estetikasida Turon-Turkiston mavzusi alohida sahifani tashkil etadi. “Turon-Turkiston mavzusi miloddan avvalgi yozma adabiyotlarda yuz ko‘rsatib keladi, - deb yozadi R.Parfi. – Misr-Bobil, Xitoy-Hindiston, Rum, Eron, Ovrupo, Amerika singari Turon-Turkiston, Turk dunyosi jahon ilm-u fani, madaniyati, adabiyoti va san‘ati xazinasiga o‘zining munosib merosini berdi va berajakdir”.

Har bir ta’rifda ta’kidlanganidek, shoirning har bir misrasi o‘ziga xos yondashuvga asoslangan, siz kutmagan o‘xshatish va ramzlarga boy bo‘lib, ulardan boshqalarnikiga o‘xshash, sodda va “dehqoncha” tilda berilgan jummalarni topish mushkul.

## **MUHOKAMA VA TAHLIL**

R.Parfi Turon-Turkiston mavzusiga bag‘ishlangan she’rlarida falsafiy, ijtimoiy mazmuniga ko‘ra so‘zlarning qaddini-yu qadrini bir bahya baland ko‘taradi, qanotini yuksaltiradi, ularga parvoz beradi:

Tegramda zich havo – ona Turkiston,

Yorgay tomirimni ko‘r hayajonim.

Bu maydon ichinda men to'kmagan qon,  
Mening uning deya ayagan jonim...  
Parchin-parchin bo'ldi yodim simlari,  
Simlar – ko'zlarimga mil tortgan chizgu.  
O'tgan ulug'larni eslayman barin,  
Xotirotni mozori Turkiston mangu. [8,73-74]

Har qadamda bizni hayron qoldiruvchi ijodkor “ tegramda zich havo”, “ Xotirotni mozori” deya ta'rif bergan vatanini “ Turkiston ” deya ataydi hamma vaqt. XX asrning 20-30- yillaridagi shu nom bilan atalgan, Abdulla Oripov o'tgan asrning 60- yillaridanoq “ O'zbekiston – vatanim manim ” deya atay boshlagan o'lkamizni Rauf Parfi Mustaqillikdan so'ng ham Turkiston deyishdan qaytmagan. “Turon. Turkiston. Vatan. Ko'z o'ngimizda turkiylarning qadimiyatdan Ona Yeri, Turk dunyosining tarixiy Vatani — salobatli jug'rofiy hudud namoyon bo'ladi. Turkiston g'oyasi xalqlarimizning azaliy muqaddas orzusi, milliy mafkurasidir”. [5,1]

Onaga, quyoshga, yerga va yana shu kabi dunyodagi yagona bo'lgan narsalarga qiyoslanuvchi vatan ozodlikni, erkni, mustaqillikni, erkin ijodni qumsab, hatto erkin nafas ololmayotgan shoir tomonidan “tegramda zich havo” deb atalishi bejiz emas. O'z bag'riga ne-ne sirlarni jo etgan ushbu zaminda qancha-qancha shohlar o'tgan, qancha zafar va mag'lubiyatlar bo'lgan bo'lgan, g'oliblar tomonidan qanchadan-qancha bir-biriga o'xshamas tarixlar yozilgan, qanchadan-qancha begunoh insonlarning - vatanparvar o'g'lonlarning, norasida bolalarning qonlari to'kilgan. Biroq, qanchadan-qancha tuxmat toshlariga duchor bo'lgan bu tuproq o'tmishi unutmagan, o'zligini saqlab qolgan, kelajagini qurajak. Balki, aynan shu kabi misralar hayolidan o'tgandir shoirning “ Xotirotni mozori ” so'zlarini bitayotganda. Bu qadar bejirim va beqiyos metaforalarni qo'llay olish va yarata

bilish qobiliyatiga ega shoir, O‘z Vatanini ta’riflashda o‘ziga xos uslub va yo‘nalish yarata olgani bejiz emas. Ramziy ifodalarning o‘zgachaligi bilan ajralib turuvchi ijodkorning biror ramzlarsiz, o‘zgacha o‘xshatishlar bilan ta’riflagan vatanini “Turkiston” deya atashining o‘ziyoq

uning o‘ziga xosligini bildiradi. Ushbu bob talabi bilan odatiy lingvistik birliklar tahlil etilishi kerakligiga qaramasdan, Rauf Parfi O‘zturkning boshqalar bilan o‘xshash jihatini topish somon ichidan igna qidirgan bilan barobar. Shunday bo‘lsa-da aytishimiz mumkinki, boshqa ijod namunalariga qiyoslaganda, yuqoridagi she‘r ramziy ifodalarsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri vatan konsepti ifodalangan misralarga ega. Bunda shoirning o‘ziga xos uslubini emas, vatanga nisbatan o‘zgarmay kelayotgan saqlanib qolgan va kamdan kam insonlarda uchraydigan qat’iy e’tiqodini ko‘rishimiz mumkin.

Shoirning “So‘zlar”, “She’riyat”, “Xarita”, “Ona tilim”, “Turkiston”, “Cho‘li Iroq”, “Uyg‘onar Turkiston, uyg‘onar dunyo”, “Qadimiy turkiylardan”, “O‘zingni ayama, borayotgan ildiz”, “Anglatgani anglagan boshlar qani” singari o‘nlab she‘rlarida Turon-Turkistonning olis o‘tmishi, buguni va kelajagi bilan bog‘liq turfa badiiy talqinlar silsilasini kuzatamiz. Badiiy So‘zning shunchalar katta salohiyati borligidan hayratlarga cho‘mamiz.

Shoirning ko‘nglini, ijodini bilmoqchi bo‘lsang, uning ona yurtini borib ko‘r, degan hikmat bor. Shoirning Vatani – bu uning sehrlı, purhikmat ma’nolarni o‘ziga singdirgan sirli qiyofalar dunyosi. Rauf Parfi lirikasidagi So‘z, Ko‘z, Qushcha, Buloq, Daraxt, Chiroq, Xayol, Nur singari obrazlar tagdor, purma’no mazmun ifodalashiga ko‘ra timsolga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi fojiali voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida o‘chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuz yilliklarda mudragan jo‘mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini qayta tiriltirish,

oyoqqa qo'yish, faollikka da'vat R. Parfining Turon-Turkiston mavzusidagi she'rlarining yetakchi xususiyatlaridan biridir.

Belgilab qo'yilgan qonuniyatlar asosida ijod qilish doimo haq so'zni aytguvchi shoirlar olamiga xos emas. Uyg'oq dillar uchun kuylangan qalb nolishlari shoir she'rlarida Vatan, Ona - Turkiston mavzulariga qayta-qayta murojaat etishga sabab bo'ldi. Bunga aynan davr va ijtimoiy muhitning ta'siri yuqori bo'ldi,- desak adashmaymiz. Yuragi qa'riga berkingan tuyg'ularini esa sekin-astalik bilan she'rlari orqali oshkor qildi.

Shuning uchun ham u:

Daryo kabi doimo uyg'oq,

Intilishim tog' qadar baland,

Olis yo'lga otlandim, biroq,

Mehrim bilan, muhabbat bilan,

Ey ko'nglimda tug'ilgan Vatan.

Xotiralar so'zlar har bir tosh,

Esdaliklar yog'adi osmon.

Tirikliging shohidi quyosh

Eslamakdan tinmaydi hamon.

Onajonim, oh, O'zbekiston.

O'zbekiston, eng shirin bo'sa

Kabi lablarimda urinding.

Men olisga otlanar bo'lsam

Yuraklarim bo'lib ko'rinding.

Onajonim, oh, O'zbekiston . [10,7]

deydi. Ha, shu qadar samimiy, ayni yurakning o‘zida toblangan bu so‘zlar, qalb yong‘inida kuydirib yuboradi. Bunday hislar shoirni Ona- Vatan haqida o‘ylashga undaydi. Badiiylik to‘niga burkangan bu misralar chin ma’noda, go‘zal ijodiy yaratq bo‘la olgan, -desak ayni haqiqatdir. Aynan, ijtimoiy muhitning o‘zi shoir ijodida mana shunday hasratlardan yaralgan qalb nolishlarini qog‘ozga to‘kishga majbur qiladi. Endi murakkab va bo‘ysunmas tuyg‘ularni dadil qalamga oladi. Mirpo‘lat Mirzo Rauf Parfi ijodiy jarayoni haqida: “U endi oddiy she’rxonni emas, zamoni teran anglaydigan, erk talab hurriyat shabadalariga ko‘ksini dadil ochgani holda, she’rlar ijod qila boshladi”. [3]- deb xotirlaydi.

Lingvistik birliklarga murojaat qiladigan bo‘lsak, ushbu she’rda shoir ijodida kamdan-kam uchraydigan “ Onajonim, oh, O‘zbekiston ” misralari uchraydi. “ ko‘nglimda tug‘ilgan ” vatanini “ eng shirin bo‘sa ” deya g‘ayritabiiy o‘xshatishlar bilan bezashiga qaramasdan, shoirning o‘z Vatanini O‘zbekiston deya atashi biz har qadamda uchratadigan vatan haqidagi she’riy asarlardagi kabidir. Lekin ijodkor nuqtayi nazari biz bilgan va bilgan sir-sinoatlarga to‘la ekanligidan bunday qat’iy xulosa berish biroz qiyin. Kim bilsin, biz vatan konseptini ifodalashda eng ko‘p qo‘llaydigan, o‘ziga xosliklarga ega bo‘lmagan “ O‘zbekiston ” so‘zi shoir ko‘nglida bizga qorong‘u bo‘lgan, jozibador yana bir boshqa yangilik sifatida paydo bo‘lgandir. Bunisi esa bizga qorong‘u.

Sho‘rolar siyosati avj urgan bir davr – o‘tgan asrning 60-70-yillarida o‘zbek shoiri O‘zbekistonni Vatanim deb kuylashi, xususan, uning o‘tmishini ulug‘lashi, xalqning orzu-armonlaridan, yo‘qolib borayotgan o‘zligidan gap ochishi mumkin emasdi, bu tuyg‘u darhol milliy mahdudlikka yo‘yilar va bu muallif boshiga malomatlar yog‘dirardi.

O‘, ona Turkiston, kuylayman yonib,  
Dunyo jur’atini berding qo‘limga.



Men endi angladim Turkiy Dunyoni,  
Mana, men tayyorman endi o‘limga.  
Ey mening zahmatkash, ey qutlug‘ xalqim,  
Bergil, faqat kuyib kuylamak haqqin.  
Ortiq mas’ul etar topilgan bu Baxt.  
“Ishq so‘zidan kuydi bulbul maskani”,  
Til bilan kuylanmas ona Vatanim,  
Men seni kuylamoq istayman faqat.[11,11]

“ Ushbu she’r 1967-yilda bitilgan. Uning zamiridagi shoir dardiga bir zum quloq tutaylik. Qo‘shirnoqqa olingan birinchi satr Alisher Navoiyga taalluqli ekanligiga shoir izoh bergan. Ya’ni, bulbul o‘z maskani – chamaniga bo‘lgan muhabbatini kuyib – yonib izhor etishi mumkin, lekin men seni hamisha kuylamoq istasam-da, kuylay olmayman (kuylashim mumkin emas), ona – Vatanim, deya nola qiladi shoir”. [3]

Adabiyot va ijod jihatdan yuqoridagi tahlillarni ancha uzoq davom ettirish mumkin. Zamona talabi, siyosiy siquvlar, mafkuraviy cheklovlarga qaramasdan, o‘zligini unitishi talab etilayotgan, xalq o‘z tug‘ilib o‘sgan diyorini emas, mustamlakachi davlat vatanim deyishga majbur etilayotgan bir sharoitda ona zaminning nomini baralla aytish hammaning ham qo‘lidan kelmagan. Lekin biz e’tiborimizni qaratishni istagan jihat ushbu she’rda qo‘llangan lingvistik birliklar. Yuqorida tahlil etilgan she’riy misralarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ramziy belgilersiz, aynan vatan konseptini yoritayotganligini bilib turibmiz. Bundan tashqari, yana o‘z uslubiga monand ravishda vatanimizni “ ona Turkiston ” deb ataydi. Qo‘shimcha ravishda esa, faqatgina qisqa davrda Turkiston tushunchasi mavjud bo‘lgan, keyinchalik O‘zbekiston atamasi qo‘llanilgan, degan fikrimizning xato ekanligini isboti o‘laroq, shoir faqatgina o‘zbeklar yashab turgan hududni emas, balki butun

turkiy xalqlar istiqomat qiladigan har bir joy uning uchun vatan ekanligini ta'kidlaydi. "Turkiy Dunyo" ni anglab yetganligi, ajdodlar merosi barhayot bo'lishi, vatan tushunchasining o'zgarishiga qandaydir tuzumlar, qanaqadir mustamlakachi xalqlar, bo'lib yuritish siyosatlari sabab bo'la olmasligini, vatanga bo'lgan e'tiqodga hech qanday kuch to'siq bo'lomasligini, " Til bilan kuylanmas ona Vatanim" deya, vatan tushunchasi yuraklarning tub-tubida yashashini ta'kidlaydi. Alpomishdek mard o'g'lonlar-u, qo'lida qanchadan-qancha huquq va kuchni mujassam qilgan podshohlar saqlab qololmagan ushbu tuproqni faqatgina shu yo'l bilan himoya qilish mumkin edi xolos. Biz uchun oddiy birlik sifatida singdiriladigan " Turkiy dunyo ", " Turkiston " so'zlari shoir yuragining qanchalar tubidan chiqqanini, ushbu so'zlar yangraganida qanchalar larzaga tushganligini biz tasavvur ham qilolmaymiz, albatta.

Ko'ringiz ta'rixni, ey turkiy xalqim,

Ko'zimga ertaning sevinchi xolos.

Ul Turondir, Turkistondir?

U balkim Ichimni kemirgan qadimiy qasos.

Ko'ringiz ta'rixni. Ko'z oldim parda,

Qo'limdan uchmoqda bu yer, bu Vatan...

Oshno tutinardim po'lat xanjarga...

Jang maydoni sari otilardim man...

Vatan, aylanarman bir keskir toshga,

Qoshingga o'q kabi uchib borarman...

Nahot til boshqadir, nahot dil boshqa?![5,22]

Abdulla Qodiriy xotirasiga atab bitilgan ushbu " Ona Turkiston " she'ri boshdan oyoq vatan dardi bilan yo'g'rilgan. Qodiriy tilidan aytilayotgan misralar shoirning ichki his-tuyg'ulari va iste'dodi bilan birga bir butunlik hosil qilgandek.

Qodiriy tilidan chiqqan soʻzlar faqatgina shoirning emas, balki vatanning barcha xalqparvar, vatanparvar oʻgʻlonlari tilidan aytilayotgandek goʻyo. Ushbu misralar tarkibida uchraydigan “ turkiy xalq”, “ Turon”, “ Turkiston”, “ Bu yer” kabi bir qator tushunchalar toʻgʻridan-toʻgʻri vatan konseptini ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Bu lingvistik birliklar biror izohsiz, oddiy, anglashiladigan, vatan konsepti bilan yonma- yon, bir umumiy mazmunga ega boʻlgan tushunchalar boʻlib, ularni odatiy birliklar qatoriga qoʻshishimiz mumkin.

### **NATIJA**

Umuman olganda, ijodining asosiy qismi ramzlar bilan yaratilgan, aynan shu jihati bilan ajralib turadigan, ustozlar nazariga tushgan, sheʼriyat muxlislari yuragida qolgan ijodkor Rauf Parfi ijodida odatiy lingvistik birliklar ham mavjud boʻlib, vatan tushunchasi “ tegramda zich havo”, “ Xotirotni mozori”, “ koʻnglimda tugʻilgan” vatanini “ eng shirin boʻsa ” kabi taʼrif-u tavsiflar bilan bezalgan, daryoga, baxtga mengzalgan, ayrim oʻrinlarda “ Oʻzbekiston ” nomi qoʻllanilgan boʻlishiga qaramasdan, ularning asosini “Turkiy Dunyo”, “Turkiy xalq”, “Turon”, hamda “Turkiston” tushunchalari tashkil etadi. Bu esa ijodkorga “ Oʻzturk ” taxallusining berilishi bejiz emasligining isbotidir.

### **XULOSA**

Nafaqat sheʼriyatda, balki har qanday ijod namunasida maʼlum bir tushunchani ifodalaydigan oʻziga xos birliklar, bir - biriga yaqin soʻz va soʻz birikmalari mavjud boʻladi. Xususan, ayrim soʻzlar aynan vatan tushunchasi bilan aloqador ekanligi ham tabiiy boʻlib, sheʼriy matnlar tarkibida uchraydigan Oʻzbekiston, yurt, tuproq, osmon, yer, dengiz, quyosh kabi bir qancha lingvistik birliklar aynan vatanni gavdalantirish uchun qoʻllaniladi. Rauf Parfi ijodida ham yuqorida sanab oʻtilgan birliklar uchrashi bilan bir qatorda, oʻziga xos nomlash uslubi ham mavjud. Masalan, Turon, Turkiston, turkiy dunyo kabi tushunchalar

boshqa shoirlar ijodida kam uchragani holda, Rauf Parfi O‘zturk ijodining asosini tashkil qiladi. Davr hamda siyosiy talabga ko‘ra, ijodiy jozibadorlik talabi bilan badiiy adabiyotda, ayniqsa, she‘riyatda turli ko‘chimlardan foydalaniladi. Vatan konseptini ifodalashda ham faqatgina ijodkorga xos bo‘lgan o‘xshatishlar orqali shakllantirish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurazzoqova G. O‘zbek tilida non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi. Dissertatsiya – Namangan: 2018.
2. Karimov. U. Konsept tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi mohiyati. // O‘zMU xabarлари -2017.
3. Mirpo‘lat Mirzo: Shoir (Rauf Parfi haqida), [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz). 2009.
4. Mullaxo‘jayeva R. XX asr o‘zbek she‘riyatida vatan konsepti. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz) 2018
5. Rauf Parfi O‘zturk. Ona Turkiston. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 2007.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya – Toshkent: . “Universitet” .2014.
7. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: “ Fan ”. 2013.
8. Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
9. Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Мухаррир, 2013.
10. Парфи Р. Сукунат. – Т.: Юлдузча, 1989.
11. Парфи Р. Тавба. – Т.: Ёзувчи, 2000.